Po'lat konstruksiyalarning iqtisodiy va ekologik samaradorligi masalalari World Steel Association tomonidan muntazam o'rganib boriladi. Tashkilotning *World Steel in Figures 2025* hisobotida po'lat ishlab chiqarish hajmi, global iste'mol tendensiyalari, qayta ishlash darajasi va sanoat rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar po'lat konstruksiyalarning zamonaviy qurilishdagi ustuvor o'rnini tasdiqlaydi [4]. Shuningdek, tashkilotning Circular Economy: Steel as a Permanent Material in the Circular Economy nomli tadqiqotida po'latning deyarli cheksiz qayta ishlanishi, resurslardan oqilona foydalanish va hayotiy sikl davomida ekologik samaradorlikni ta'minlashdagi afzalliklari asoslab berilgan [5].

MDH mamlakatlari ilmiy maktabida metall konstruksiyalar nazariyasining rivojlanishiga E.I. Belenya katta hissa qo'shgan. Muallif metall konstruksiyalarni hisoblashning nazariy asoslari, kesimlarning ishlash xususiyatlari, ustuvorlik masalalari, elastik-plastik holatlar hamda murakkab yuklanishlar ostidagi elementlarning

ishlash mexanizmlarini batafsil yoritgan. Ayniqsa, konstruktiv sxema va elementlarning o'zaro ishlashiga berilgan ilmiy izohlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda [6].

Sanoat binolari metall sinchlarini loyihalash masalalari V.V. Kuznetsov tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Muallif sanoat inshootlarining konstruktiv sxemalari, ustunlar, fermalar, kranosti konstruksiyalari hamda bog'lovchi elementlarning hisoblash usullarini yoritib, ishlab chiqarish texnologiyasi va montaj sharoitlarining konstruksiya ishonchligiga ta'sirini ko'rsatgan [7].

Xorijiy adabiyotlarda po'lat konstruksiyalarni hisoblash va loyihalash metodologiyasi Salmon, Johnson va Malhas tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlar bilan keng rivojlantirilgan. Ularning tadqiqotlarida materialning elastik-plastik ishlashi, elementlarning umumiy va mahalliy ustuvorligi, birikmalarning hisobiy modeli hamda zamonaviy hisoblash usullari chuqur tahlil qilingan [8]. Shu bilan birga, McCormac va Csernak po'lat konstruksiyalarni loyihalashning amaliy jihatlariga alohida e'tibor qaratib, yuk kombinatsiyalari, elementlar va tugunlarning hisoblash usullarini zamonaviy me'yorlar asosida tizimlashtirgan [9].

Seysmik hududlarda po'lat konstruksiyalarni loyihalash bo'yicha muhim ilmiy ishlardan biri Bruneau, Uang va Sabelli tomonidan ishlab chiqilgan. Mualliflar plastik deformatsiyalarni boshqarish, energiyani yutuvchi konstruktiv elementlar, tugunlarning plastiklik qobiliyati hamda zilzila vaqtida konstruksiyaning progressiv buzilishining oldini olish masalalarini keng yoritganlar [10]. Mazkur yondashuv bugungi kunda seysmik loyihalash konsepsiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Amaliy loyihalash bo'yicha eng mukammal qo'llanmalardan biri Steel Designers' Manual bo'lib, unda po'lat konstruksiyalarning barcha asosiy elementlari, birikmalari, konstruktiv yechimlari hamda loyihalash bo'yicha tavsiyalar umumlashtirilgan. Qo'llanmada Eurocode talablarini amaliy hisoblash usullari bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan [11].

Eurocode 3 talablarini ilmiy jihatdan sharhlovchi fundamental manbalardan biri Trahair, Bradford, Nethercot va Gardner tomonidan yaratilgan asardir. Unda po'lat konstruksiyalarning ustuvorligi, deformatsion holati, charchashga bardoshlilik, birinchi va ikkinchi tartibli effektlar hamda EC3 talablarini qo'llash metodikasi batafsil tahlil qilingan [12].

Po'lat qurilish konstruksiyalarini ishlab chiqarish va tayyorlash sifatiga oid texnik talablar GOST 23118–2019 standartida belgilangan. Mazkur standart ishlab chiqarish aniqligi, payvand choklari sifati, geometrik og'ishlar, korroziyaga qarshi himoya, qabul qilish va sifat nazorati tartiblarini belgilab, metall konstruksiyalarning ekspluatatsion ishonchligini ta'minlashda muhim me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi [13].

Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar metall konstruksiyalarning ishonchligi faqat elementlarning hisobiy mustahkamligi bilan emas, balki konstruktiv sxema, tugunlar sifati, seysmik moslashuvchanlik, ishlab chiqarish va montaj texnologiyasi hamda ekspluatatsion monitoringning uzviy uyg'unligi bilan belgilanishini ko'rsatadi. Mazkur ilmiy qarashlar ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi normativ-tahliliy, qiyosiy-muhandislik, tizimli, chegaraviy holatlar, konstruktiv modellashtirish, ehtimollik asosidagi ishonchlilik va ekspluatatsion diagnostika usullarini uyg'unlashtirishga asoslandi. Milliy qurilish reglamentlari, seysmik loyihalash normalari hamda Eurocode 3 talablari qiyoslanib, metall konstruksiyalarni ishlab chiqarish sifati, qarshilik, xizmatga yaroqlilik, chidamlilik va yong'inga bardoshlilikning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi [1–3]. Tizimli yondashuvda ustun, rigel, ferma, bog'lovchi va tugunlar alohida detallar sifatida emas, balki yuklarni qabul qiluvchi, qayta taqsimlovchi, deformatsiyani cheklovchi hamda favqulodda holatlarda konstruktiv yaxlitlikni ta'minlovchi fazoviy mexanik tizimning tarkibiy qismlari sifatida qaraldi. Birinchi guruh chegaraviy holatlar bo'yicha elementlar va birikmalarning mustahkamligi, umumiy hamda mahalliy ustuvorligi, plastik zaxirasi va charchashga bardoshlilik; ikkinchi guruh bo'yicha esa egilish, siljish, tebranish, qavatlararo ko'chish va xizmatga yaroqlilik ko'rsatkichlari baholandi. Seysmik sharoit uchun chiziqli elastik hisob bilan bir qatorda plastik sharnirlarning shakllanishi, tugunlarning aylanish qobiliyati, energiya yutuvchi zonalar hamda asosiy vertikal yuk ko'taruvchi elementlarning yaxlitligini saqlash metodik mezon sifatida qabul qilindi. Nazariy tahlil obyektlari sifatida uglerodli va kam legirlangan po'latlar, prokat hamda payvandli kesimlar, rama-sinchlar, fermalar, vertikal-gorizontal bog'lamalar, boltli va payvandli birikmalar olindi. Ishlab chiqarish va montaj sifati geometrik aniqlik, qoldiq egrilik, payvand choklarining uzluksizligi, ichki nuqsonlar, bolt teshiklari mosligi, oldindan tortish kuchi, yuzalarni tayyorlash va korroziyaga qarshi qoplama holati orqali baholandi. Ekspluatatsion diagnostikada kesimning korroziya tufayli kamayishi, choklardagi yoriqlar, boltlarning bo'shashishi, qoldiq deformatsiyalar, poydevor cho'kishi, mahalliy bukilish va vibratsion o'zgarishlar hisobiy modelni aniqlashtiruvchi parametrlar sifatida qabul qilindi. Metall konstruksiyaning real ishonchligini baholash uchun sakkiz mezonli algoritm taklif etildi: material va kesimning mexanik zaxirasi; fazoviy sxema birligi; tugunlarning mustahkamligi va deformatsion qobiliyati; umumiy va mahalliy ustuvorlik; dinamik-seysmik



ta'sirlarga moslashuvchanlik; korroziya va yong'inga chidamlilik; ishlab chiqarish-montaj sifati; texnik monitoring darajasi. Baholash besh bosqichda amalga oshiriladi: yuk yo'llari va konstruktiv sxemani aniqlash; kesimlarni mustahkamlik hamda ustuvorlik bo'yicha tekshirish; tugunlarning hisobiy va texnologik ishlashini baholash; ishlab chiqarish va montaj bilan bog'liq omillarni aniqlash; muhit hamda ekspluatatsiya sharoitlarini hisobga olish. Ushbu metodika hisobiy idealizatsiya bilan real obyekt o'rtasidagi tafovutni kamaytirish, kompyuter modeli natijalarini texnologik nazorat va texnik ko'rik ma'lumotlari bilan o'zaro bog'lashga yo'naltirildi.

Ehtimollik yondashuvda yuklar, material xossalari, geometrik og'ishlar, korroziya tezligi va xizmat ko'rsatish sifati o'zgaruvchan omillar sifatida inobatga olindi. Shu sababli xavfsizlik koeffitsiyenti alohida mezon sifatida emas, balki noaniqliklarni hisobga oluvchi normativ, texnologik va tashkiliy choralar bilan uyg'un holda talqin qilindi. Kompyuter modellashtirishda birinchi va ikkinchi tartibli effektlar, elementlarning dastlabki egriligi, tugun qattiqligi va yuk kombinatsiyalari tahlil qilinishi, olingan natijalar esa ishchi chizmalar hamda real montaj sxemasi bilan taqqoslanishi nazarda tutildi. Texnik diagnostika uchun vizual ko'rik, geodezik o'lchash, ultratovush va magnit nazorat, metall qalinligini o'lchash, bolt tortilishini tekshirish hamda vibratsion kuzatuv usullarining o'zaro uyg'un qo'llanilishi metodik asos sifatida qabul qilindi. Alohida usul orqali aniqlangan natijalar konstruktiv sxema va yuklanish tarixi bilan birgalikda baholanganda yanada ishonchli xulosalar olish imkonini berishi metodik tamoyil sifatida e'tirof etildi. Shuningdek, montaj bosqichidagi vaqtinchalik holatlar alohida hisobiy holat sifatida qaraldi, chunki elementlar doimiy bog'lamalar o'rnatilgunga qadar yakuniy fazoviy sxemada to'liq ishlamaydi va kran bilan ko'tarish, vaqtinchalik tayanchlar hamda ketma-ket yig'ish jarayonlarida konstruktiv holatning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lishi mumkin.

Tadqiqotda progressiv buzilish holati ham alohida ko'rib chiqildi: bitta ustun, bog'lovchi yoki tugun qisman ishlash xususiyatini yo'qotgan vaziyatlarda yuklarning boshqa elementlarga qayta taqsimlanish imkoniyati, qavat va tom diafragmalarining yaxlitligi hamda birikmalarning uzluksizligi baholash mezonlariga kiritildi. Mazkur yondashuv konstruksiyaning dastlabki holati bilan bir qatorda shikastlanishdan keyingi ekspluatatsion barqarorligini ham kompleks baholash imkonini beradi. Natijalarni talqin qilishda hisobiy zaxiraning me'yoriy minimumdan yuqori bo'lishi konstruksiyaning optimal yechimini tavsiflovchi yagona ko'rsatkich emasligi inobatga olindi, chunki massa va bikrlilikning tanlangan darajasi seysmik ta'sirlar ostidagi konstruktiv ishlash xususiyatlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari metall konstruksiyalarning ishonchligi konstruktiv-geometrik, material-kesim, tugun-birikma, tashqi muhit va ekspluatatsion nazorat omillarining o'zaro uyg'un ta'siri bilan shakllanishini ko'rsatdi. Konstruktiv-geometrik omillarda reja muntazamligi, massa va qattqlik markazlarining yaqin joylashuvi, rama va bog'lamalarning uzluksizligi, qavat hamda tom diafragmalarining gorizonta disk sifatida ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Nosimmetrik sxema va qattqlikning keskin o'zgarishi seysmik ta'sirlar ostida burilish tebranishlarining ortishiga hamda ayrim ustun va tugunlarda zo'riqlashlarning qayta taqsimlanishiga olib kelishi mumkin. Material va kesim bo'yicha po'latning oqish chegarasi, plastiklik, zarbiy qovushqoqlik, payvandlanuvchanlik, plastinka elementlarining eni-qalinligi nisbati va qoldiq kuchlanishlar muhim muhandislik ko'rsatkichlari sifatida baholandi. Yuqori mustahkam po'lat kesim o'lchamlarini optimallashtirish imkonini bersa-da, yupqaroq elementlarda mahalliy bukilish va montaj jarayoniga sezgirlik ortishi mumkin. Shu sababli material tanlashda mustahkamlik bilan bir qatorda konstruktiv vazifaga mos plastiklik va ustuvorlik ko'rsatkichlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Tugunlar tizimning eng mas'ul qismlaridan biri bo'lib, payvandli birikmalarda termik ta'sir zonasi, pishmaslik, g'ovaklik va qoldiq kuchlanishlar, boltli birikmalarda esa teshik aniqligi, yuzalar holati, bolt tortilishi va vibratsiya sharoitidagi ishlash xususiyatlari nazorat qilinadi. Seysmik sharoitlarda tugunlarning elementlar orasida hisobiy kuchlarni ishonchli uzatishi, zarur plastik aylanishni ta'minlashi va konstruktiv yaxlitlikni saqlashi muhim hisoblanadi. Tashqi ta'sirlar tarkibiga doimiy va vaqtinchalik yuklar, shamol, qor, harorat, texnologik tebranishlar, kran dinamikasi, seysmik kuchlar, namlik, agressiv gazlar hamda yong'in omillari kiradi. Korroziya kesim maydonining kamayishiga, ayniqsa chok va boltlar atrofidagi ishlash sharoitining o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin, yong'in ta'sirida esa po'latning mustahkamligi va bikrligi pasayadi. Shu bois himoya qoplamalari, drenaj yechimlari va yong'inga qarshi qatlamlar konstruktiv xavfsizlikni ta'minlovchi muhim muhandislik yechimlari sifatida qaraladi. World Steel Association ma'lumotlari po'lat ishlab chiqarishning energiya va uglerod sig'imi yuqori ekanini ko'rsatishi bilan birga, uning qayta ishlanishi va takroriy foydalanilishi hayotiy sikl samaradorligini oshirishini ham tasdiqlaydi [4–6].

Natijalar asosida loyihaviy va ekspluatatsion ishonchlilik tushunchalari o'zaro bog'liq holda tavsiflandi. Loyihaviy ishonchlilik amaldagi normalar, hisob-kitoblar va chizmalar asosida shakllansa, ekspluatatsion ishonchlilik real yuklanishlar, tashqi muhit, foydalanish sharoiti va texnik xizmat ko'rsatish natijalari bilan

belgilanadi. Integral baholash $R_k = f(M, S, J, D, C, F, Q, T)$ ko'rinishida ifodalandi. Bunda **M** — material va kesim zaxirasi, **S** — fazoviy sxema, **J** — tugunlar, **D** — dinamik moslashuvchanlik, **C** — korroziyaga chidamlilik, **F** — yong'inga bardoshlilik, **Q** — ishlab chiqarish va montaj sifati, **T** — monitoring darajasini bildiradi. Mazkur ifoda qat'iy matematik formula emas, balki ekspert baholashini tizimli ravishda amalga oshirishga xizmat qiluvchi konseptual model sifatida taklif etildi.

Tahlillar yuk yo'llarini optimallashtirish, kritik tugunlarni plastiklik talablariga muvofiq loyihalash, geodezik va instrumental nazoratni kuchaytirish hamda davriy texnik ko'riklarni muntazam tashkil etish metall konstruksiyalar ishonchlilikini oshirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Raqamli model ekspluatatsion pasport bilan integratsiyalashganda dastlabki geometriya, material sertifikatlari, payvand va montaj dalolatnomalari, keyingi texnik ko'riklar hamda korroziya holati yagona axborot bazasida jamlanadi. Bunday yondashuv konstruksiyaning texnik holatini muntazam kuzatish, ta'mirlash muddatlarini asoslash va xizmat muddatini samarali boshqarish imkonini yaratadi. Konstruktiv rezerv esa faqat qo'shimcha metall miqdori bilan emas, balki shikastlanish holatlarida yuklarni muqobil yo'llar orqali qayta taqsimlash, vertikal yuk ko'taruvchi tizimning uzluksiz ishlashini saqlash hamda progressiv buzilish xavfini cheklash qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Ishlab chiqarish va montaj sifati bo'yicha olingan natijalar texnologik aniqlikning konstruksiyaning yakuniy ishlash xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Element o'qining loyihaviy holatdan og'ishi siqilgan ustunlarda qo'shimcha momentlar va ikkinchi tartibli effektlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bolt teshiklarining mosligi birikmalarda kuch uzatish sharoitiga ta'sir etadi, payvand choklarining ichki sifati esa uzoq muddatli ekspluatatsiya va takroriy yuklanishlar ostidagi ishlash ishonchlilikini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Shu sababli zavod nazoratida material sertifikatlarini tekshirish bilan bir qatorda geometrik aniqlik, payvand sifati, qoldiq deformatsiyalar va himoya qoplamalari holatini hujjatlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ekspluatatsion monitoring uchun uch bosqichli tizim tavsiya etildi: muntazam vizual ko'rik, belgilangan davrda instrumental diagnostika hamda zilzila, yong'in, to'qnashuv yoki texnologik yuklanish o'zgarganidan keyingi navbatdan tashqari tekshiruv. Monitoring jarayonida korroziya kesim yo'qotilishi, tarqalish maydoni va konstruktiv ahamiyati bilan baholanadi. Deformatsiyalar geodezik kuzatuv natijalari asosida vaqt bo'yicha taqqoslanadi, vibratsion parametrlarning o'zgarishi esa birikmalar va fazoviy bikrlilik holatini baholashda qo'shimcha axborot manbai sifatida qo'llaniladi. Metall konstruksiyaning ekspluatatsion pasportida ruxsat etilgan yuklar, qayta rejalashtirish shartlari va qo'shimcha uskunalarni o'rnatish talablari aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir, chunki foydalanish sharoitining o'zgarishi konstruksiyaning hisobiy ishlash xususiyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu tariqa monitoring tizimi nafaqat texnik holatni kuzatish, balki konstruksiyaning qolgan xizmat resursini samarali boshqarish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv sxemalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida rama, bog'lamali va rama-bog'lamali tizimlarning har biri muayyan ekspluatatsion va seysmik sharoitlarda o'ziga xos afzalliklarga ega ekani aniqlandi. Qattiq ramalar me'moriy erkinlik va ochiq reja yechimlarini ta'minlasa, bog'lamali tizimlar fazoviy bikrlilikni oshirish imkonini beradi. Rama-bog'lamali tizimlar esa plastiklik va bikrlilik xususiyatlarini o'zaro uyg'unlashtirishi bilan ajralib turadi. Optimal konstruktiv tizimni tanlashda bino balandligi, oraliqlar, texnologik talablar, montaj sharoiti va seysmik xavf darajasi kompleks ravishda hisobga olinishi tavsiya etiladi. Tom va qavat yopmalarining gorizontall diafragma sifatida samarali ishlashi vertikal bog'lovchi tizimlarning hisobiy imkoniyatlarini to'liq namoyon etishga xizmat qilishi sababli, profillangan to'shamalar, bog'lovchi elementlar va ularning tayanchlarga birikish yechimlari umumiy fazoviy konstruktiv modelning ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholanishi lozim.

Olingan natijalar metall konstruksiyalarni baholashda klassik mustahkamlik nazariyasini ustuvorlik, chiziqli deformatsion tahlil va hayotiy sikl ishonchliliği yondashuvlari bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Po'lat elementlarning real ishlash xususiyatlari faqat kesimdagi nominal kuchlanishlar bilan emas, balki siqilgan elementlarning egilishi, plastinka qismlarining mahalliy bukilishi, tugunlardagi kuchlanishlarning qayta taqsimlanishi, charchash hodisalari hamda korroziya natijasida kesimning o'zgarishi kabi omillar bilan ham belgilanadi. Shu sababli kesimning yuk ko'tarish qobiliyati bilan bir qatorda elementning geometrik barqarorligi, tugunlarning deformatsiyani qabul qilish xususiyati, tizimning yuklarni qayta taqsimlash imkoniyati hamda mahalliy shikastlanishlarning umumiy konstruktiv ishlashga ta'siri kompleks baholanishi maqsadga muvofiqdir.

Seysmik loyihalashda konstruksiyaning boshqariladigan plastiklik xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda rigellar, bog'lovchi elementlar yoki maxsus energiya yutuvchi qismlarda hisobiy deformatsiyalar yuzaga kelishi, asosiy vertikal yuk ko'taruvchi elementlarning esa konstruktiv yaxlitligini saqlashi ko'zda tutiladi. Mazkur yondashuv chiziqli hisob usullaridan foydalanishning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi [2]. Payvandli tugunlarda chok turi, issiqlik kiritilishi, termik ta'sir zonasi va ichki tuzilish xususiyatlari, boltli tugunlarda esa oldindan tortish kuchi, kontakt yuzalarining tayyorlanishi hamda teshiklarning aniqligi birikmalarining ishlash sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois birikmalar ishonchliliği loyihalash bilan bir qatorda ishlab chiqarish va montaj jarayonlarining sifatiga ham bevosita bog'liqdir [1].

Korroziyaga va yong'inga qarshi himoya konstruktiv yechimlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida



qaralishi lozim. Himoya tizimini tanlashda muhitning agressivligi, foydalanish muddati, texnik xizmat ko'rsatish va qoplamalarni yangilash imkoniyatlari inobatga olinishi konstruksiyaning uzoq muddatli ishonchligini ta'minlashga xizmat qiladi. Eurocode 3 standartida chidamlilik va yong'in holatlarining umumiy loyihalash tizimiga kiritilgani ushbu yondashuvning dolzarbligini tasdiqlaydi [3]. Metall konstruksiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda ham faqat metall sarfi emas, balki zavodda tayyorlash darajasi, montaj tezligi, poydevorga uzatiladigan yuk, katta oraliqlarni yopish imkoniyati, rekonstruksiya qulayligi va xizmat ko'rsatish xarajatlari kabi omillarni birgalikda hisobga olish muhim hisoblanadi. Po'latning qayta ishlanishi va takroriy foydalanish imkoniyati hayotiy sikl samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan birga, ratsional kesimlar, standartlashtirish va uzoq muddatli ekspluatatsiyaga mos detallashtirish yechimlari ushbu samaradorlikni yanada kuchaytiradi [4–6].

Tahlillar loyiha, ishlab chiqarish, montaj va ekspluatatsiya bosqichlari o'rtasidagi axborot uzviyligi metall konstruksiyalar ishonchligini ta'minlashning muhim sharti ekanini ko'rsatdi. Loyihaviy yechimlar sifatli bajarilgan taqdirda ham, geometrik og'ishlar, montaj texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, vaqtinchalik bog'lamlarning holati, payvand sifatidagi tafovutlar yoki himoya qoplamalarining ekspluatatsion holati konstruksiyaning real ishlashiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli loyiha ekspertizasi, zavod nazorati, montaj geodeziyasi, payvand choklarini instrumental tekshirish, foydalanishga topshirish diagnostikasi va davriy texnik ko'riklarni yagona axborot tizimi doirasida yuritish maqsadga muvofiqdir.

Raqamli hisoblash dasturlari konstruksiyaning kuchlanganlik va deformatsion holatini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, montaj ketma-ketligi, texnologik bajarilish xususiyatlari, ekspluatatsiya davomida yuzaga keladigan nuqsonlar yoki korroziya oqibatlari kabi omillarni baholashda muhandislik tahlili muhim o'rin tutadi. Shu bois hisoblash natijalarini konstruktiv yechimlar, detallashtirish sifati, ishlab chiqarish texnologiyasi va obyekt diagnostikasi ma'lumotlari bilan uyg'un holda talqin qilish tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv metall konstruksiyalarning samaradorligi material xususiyatlari bilan bir qatorda butun hayotiy siklni qamrab oluvchi muhandislik boshqaruvi tizimi orqali shakllanishini ko'rsatadi.

Muhokama natijalari oliy ta'lim va loyiha amaliyotida konstruktiv fikrlashni yanada rivojlantirish muhimligini ham tasdiqlaydi. Mutaxassis hisoblash dasturlari taqdim etadigan natijalarni tahlil qilish bilan bir qatorda kuchlar oqimi, tugunlarning real ishlashi, montaj ketma-ketligi hamda yuklarning muqobil taqsimlanish imkoniyatlarini ham kompleks baholashi maqsadga muvofiqdir. Metall konstruksiyalar bo'yicha ishchi chizmalarni ishlab chiqishda ishlab chiqarish texnologiyasiga moslik, texnik ko'rik va ta'mirlash qulayligi, zarur detallashtirish darajasi hamda payvand choklarining oqilona joylashtirilishi konstruktiv yechimlarning amaliy samaradorligini oshiradi. Sanoat obyektlarida foydalanish sharoitlari vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkinligi sababli konstruksiyaning moslashuvchanligi, elementlarni kuchaytirish yoki almashtirish imkoniyati hamda to'liq texnik hujjatlar mavjudligi hayotiy siklni samarali boshqarishda muhim omil hisoblanadi. Profilaktik ta'mirlash va himoya qoplamalarini o'z vaqtida yangilash konstruksiyaning uzoq muddatli xizmat qilishiga hamda ekspluatatsion xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy samaradorlikni baholashda dastlabki loyiha qiymati bilan bir qatorda xizmat muddati, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, ekspluatatsiya uzilishlari va konstruksiyani qayta foydalanishga tayyorlash imkoniyatlarini ham kompleks hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Amaldagi me'yoriy hujjatlar xavfsizlikning asosiy talablarini belgilab bersa-da, ularni obyektning konstruktiv xususiyatlari, montaj sharoiti va kelgusidagi foydalanish ssenariylari bilan uyg'unlashtirish muhandislik yechimlarining samaradorligini yanada oshiradi. Shu bois loyiha bosqichida ustuvorlikka sezgir elementlar, charchash ta'siri yuqori bo'lishi mumkin bo'lgan tugunlar, namlik to'planishi ehtimoli mavjud joylar, nazorat qilish murakkab bo'lgan birikmalar hamda yuklarning muqobil taqsimlanish yo'llarini aks ettiruvchi muhandislik xavf xaritasini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv texnik nazorat va ekspluatatsiya xizmatlariga ustuvor kuzatuv nuqtalarini aniqlash hamda resurslarni konstruktiv xususiyatlar va foydalanish sharoitlarini hisobga olgan holda samarali taqsimlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari metall konstruksiyalarning yuqori mustahkamlik, nisbatan kichik massa, zavod sharoitida tayyorlash va tez montaj qilish kabi afzalliklarga ega ekanini hamda ularning ishonchligi muhandislik yechimlari va sifat nazorati tizimi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Po'lat konstruksiyalarni «material–kesim–tugun–fazoviy sxema–muhit–ekspluatatsiya» zanjiri asosida kompleks baholash konstruksiyaning umumiy ishlash xususiyatlarini to'liqroq aks ettirish imkonini beradi. Shu bois alohida elementlarning hisobiy mustahkamligi bilan bir qatorda fazoviy tizimning yaxlit ishlashi ham muhim mezon sifatida qaraladi.

Seysmik hududlarda reja muntazamligi, massa va qattqlik markazlarining muvofiqligi, bog'lovchi elementlarning uzluksizligi, tugunlarning plastiklik zaxirasi, energiyani boshqariladigan tarzda yutish qobiliyati

hamda poydevorga kuchlarni ishonchli uzatish mexanizmlari konstruksiyaning barqaror ishlashini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida tavsiflandi. Ishlab chiqarish va montaj bosqichlarida geometrik aniqlik, payvand choklari sifati, boltlarning tortilish darajasi, vaqtinchalik konstruktiv barqarorlik va himoya qoplamalari holatini loyihaviy hisoblar bilan uyg'un holda nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan ko'p mezonli baholash algoritmi mustahkamlik, ustuvorlik, deformatsion holat, dinamik ta'sirlarga moslashuvchanlik, korroziyaga chidamlilik, yong'inga bardoshlilik, ishlab chiqarish va montaj sifati hamda ekspluatatsion monitoringni yagona tizimda baholash imkonini beradi. Olingan natijalar konstruktiv yechimlarning samaradorligini oshirishda metall sarfini ko'paytirishdan ko'ra, konstruktiv sxemani optimallashtirish, muhim tugunlarni puxta detallashtirish, plastiklik zonalarini oldindan belgilash va ekspluatatsion monitoringni tizimli tashkil etish yuqori samara berishini ko'rsatdi.

Har bir obyekt uchun «ishonchlilik pasporti»ni shakllantirish tavsiya etiladi. Mazkur hujjatda po'lat markasi, kesimlar, tugunlar, payvand va boltli birikmalar nazorati, korroziya hamda yong'inga qarshi himoya choralari, montaj geodeziyasi, konstruksiyaning kritik elementlari va texnik ko'rikning davriyligi aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv ekspluatatsiya davomida konstruksiyaning texnik holatini muntazam baholash va xizmat muddatini samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda mahalliy iqlim va sanoat muhitiga mos korroziya ko'rsatkichlarini aniqlash, seysmik tugunlarning chiziqsiz ishlash xususiyatlarini eksperimental tadqiq etish hamda mavjud metall sinchlarni raqamli diagnostika texnologiyalari asosida baholash istiqbolli ilmiy yo'nalishlar sifatida qaraladi.

Yakuniy xulosa sifatida metall konstruksiyalarning ishonchlilik loyihalash, ishlab chiqarish, montaj va ekspluatatsiya bosqichlarining o'zaro uyg'unligi orqali ta'minlanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Taklif etilgan yondashuv metall konstruksiyalarni faqat loyihalash obyektlari sifatida emas, balki butun xizmat muddati davomida texnik holati monitoring qilinadigan va boshqariladigan muhandislik tizimi sifatida baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2023-yil 29-dekabrda "Po'lat konstruksiyalari. Ishlab chiqarish va ishlarni qabul qilish qoidalari" qurilish reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 460-son buyrug'i // URL: https://main.tmsiti.uz/media/FILES/shnk/QR_03.02.pdf
2. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 15.08.2025-yildagi "ShNQ 2.01.06-25 "Seysmik hududlarda baland binolarni loyihalash" shaharsozlik normalari va qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 01/2-38-son buyrug'i // URL: <https://lex.uz/pdfs/7780243>
3. European Commission, Joint Research Centre. Eurocode 3: Design of Steel Structures (EN 1993). – Luxembourg: Publications Office of the European Union.
4. World Steel Association. World Steel in Figures 2025. – Brussels: World Steel Association, 2025.
5. World Steel Association. Circular Economy: Steel as a Permanent Material in the Circular Economy. – Brussels: World Steel Association.
6. Беленя Е.И. Металлические конструкции. Специальный курс. – М.: Стройиздат.
7. Кузнецов В.В. Металлические конструкции промышленных зданий. – М.: Издательство Ассоциации строительных вузов.
8. Salmon C.G., Johnson J.E., Malhas F.A. Steel Structures: Design and Behavior. – 5th ed. – Boston: Pearson.
9. McCormac J.C., Csernak S.F. Structural Steel Design. – 6th ed. – Boston: Pearson.
10. Bruneau M., Uang C.M., Sabelli R. Ductile Design of Steel Structures. – 2nd ed. – New York: McGraw-Hill.
11. Owens G.W., Knowles P.R., Dowling P.J. Steel Designers' Manual. – 7th ed. – Chichester: Wiley-Blackwell.
12. Trahair N.S., Bradford M.A., Nethercot D.A., Gardner L. The Behaviour and Design of Steel Structures to EC3. – 4th ed. – Boca Raton: CRC Press.
13. GOST 23118–2019. Steel Building Structures. General Specifications. – Moscow: Standartinform.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100